

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-igʻtisodiy, innovatsion texnik,
fan va taʼlimga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL

SENTYABR / 9-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.us/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari


08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Ф.Р. РАЕКАНОВА
ФИЗИКА ИЛ. ФАДИЁНОВА



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI ERTA ANIQLASH TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Kobilova Ozoda Abdishukur qizi	
BUYUK BRITANIYA STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODEL VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	15
Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li	
ФИНАНСОВЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ АГРОБИЗНЕСА, РЕФОРМА ИНСТИТУТА НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ И ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОЙ БЕДНОСТИ: УЗБЕКИСТАН, 2015–2025 ГОДЫ.....	21
Адилов Шерзот Шамильевич	
AHOLI DAROMADLARI VA ISTE'MOL XARAJATLARINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	30
Farmonov Dilshod Po'latovich	
SUN'IY INTELLEKT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALIGA QO'YILADIGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLARNING O'ZGARISHI: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO'NALISHLAR	36
Durdona Davletova	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MEHNAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH OMILLARI, USULLARI HAMDA FUNKSIYALARI	56
Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna	
O'ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI MEKANIZMI.....	61
Erxanov Muxammadjon Absayitovich	
BOSHQARUV TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI.....	68
Safarov Shohboz Vahob o'g'li	
EVALUATION OF THE PHYTOREMEDIATION POTENTIAL OF AZOLLA CAROLINIANA FOR THE REMOVAL OF TOXIC METALS FROM INDUSTRIAL EFFLUENTS	72
Azimov Shavkat Shuxratovich	
STABLE CEMENT COMPOSITES BASED ON WASTE TIRE RUBBER AND FLY ASH	78
Daminov Oybek, Egamberdiyev Elmurod, Xoliqulov Odiljon	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNING EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASH.....	85
Xikmatullayeva Nargiza Jamoliddin qizi	
CO-LOCATED SMALL MODULAR REACTORS AS AN ALTERNATE AC POWER SOURCE FOR LARGE NUCLEAR UNITS UNDER REGIONAL GRID CASCADING CONDITIONS: A DESIGN-BASIS ASSESSMENT FOR UZBEKISTAN	90
Turaeva Dilnavoz	
YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTINI BARQAROR IQTISODIYOTGA ULUSHINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARI.....	96
Dilshod Karimboyev	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ МОДЫ НА ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА	102
Юсупова Мохинур Фарход кизи	
АДАПТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ФАКТОР КАЧЕСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЭНЕРГОПЕРЕХОДА.....	110
Аллаева Гульчехра Жалгасовна	



ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПОВЕДЕНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ	121
Икрамова Нодира Бурхон кизи	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINING MINERALOGIK VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH.....	128
Abdisoatov Sardor, Axmatov Sobir, Eshnazarov Mustafo	
MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA TA'LIM-INNOVATSION RIVOJLANISHNING MOHIYATI VA UNING NAZARIY ASOSLARI	133
Temirova Shalola Erkinovna	
BENZIN TARKIBIDAGI KISLOROD MIQDORINI ANIQLASH: TAHLIL USULLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	138
To'xtayev Nozim Nazir o'g'li	
EKSTRAKSIYA JARAYONI PARAMETRLARINING ERITUVCHILARNING EKSTRAKSION QOBILIYATIGA BOG'LIQLIGI	142
G'aybullayev Saidjon Abdusalimovich	
THE ROLE OF CHATBOTS IN EDUCATION AND THEIR APPLICATION	150
Hamroyev Bobirjon Bahritdinovich	
KICHIK BIZNES VA UNING MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.....	156
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
KO'P QATLAMLI SFERIK QOBIQNING QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI XOS (ERKIN) TEBRANISHLARI	161
Jalolov Farruh Baxshulloyevich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASH VA ELEKTR TA'MINOTI BARQARORLIGINI OSHIRISH	168
Jafarov Sobir Talab o'g'li	
SENTINEL-1 PSINSAR TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QALMOQQIR OCHIQ KARYERI BORTLARINING DEFORMATSIYASINI SUN'IY YO'LDOSH ORQALI MONITORING QILISH	173
Usmonov Firdavs Ro'zimurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	181
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
АНАЛИЗ ДИНАМИКИ, СТРУКТУРЫ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА.....	190
Умаров Улугбек Унарович	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA IJTIMOY FAROVONLIK VA YASHASH SHAROITLARINI BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVI	197
Jamolov Mirzabek Mirjalil o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	202
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG'I STAVKALARINING BIR XILDA OSHIRILISHINING FISKAL, ISTE'MOL VA TAQSIMLANISHGA TA'SIRI.....	208
Musurmonov Sherzod Yusupovich	
DEVELOPING A CONCEPTUAL MODEL OF A MARKETING MECHANISM FOR ATTRACTING APPLICANTS	217
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li	
ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINING SOTSIAL-IQTISODIY MAZMUNI VA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI	230
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	
DISPERS SISTEMALARINING TURLARI VA ULARNINGYO'L BITUMLARINING XOSSALARIGA TA'SIRINI TADQIQ QILISH	235
Abdullayeva Shoxista Shuxratovna, Adizov Bobirjon Zamirovich	



ЦИФРОВИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ.....	240
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING AXBOROT IMKONIYATLARI (EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH)	245
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB ETILISHINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	253
Obilov Mirkomil Rashidovich	
IJTIMOIIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING XORIJIY MODELLARI: QIYOSIIY TAHLIL	260
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
DAVLAT SUBSIDIIYALARINI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH VA XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	266
Hasanov To'liqin Axmatovich	
СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭКСИТОННОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ САМОАГРЕГАЦИИ МОЛЕКУЛ РИБОФЛАВИНА	272
Г.К. Касимова	
QAZIB OLINAYOTGAN ENG YIRIK VA RUDA KONLARINING GEODINAMIK SHAROITLARINI TAHLIL QILISH.....	277
Qo'shshayev Uchqun Quvvatovich	
KO'P O'LCHAMLI BESSEL OPERATORLARIGA ASOSLANGAN LAPLAS-BESSEL DIFFERENSIAL OPERATORINING FORMAL O'Z-O'ZIGA QO'SHMALIGI VA BIR JINSILIK XOSSALARI HAQIDA.....	282
Jo'rayev Shaxzod Shuhratjon o'g'li	
NUQTAVIY BOG'LANISHLAR VA BIRIKTIRILGAN MASSALARGA EGA VISKOELASTIK PLASTINA-QOBIQ TIZIMLARINING ERKIN TEBRANISHLARINI VARIATSION-SPEKTRAL TAHLIL QILISH.....	287
Homidov Farhod Faxridinovich	
ELEKTROTEKNIKA TIZIMLARINING METROLOGIK TA'MINOTINI RAQAMLI MONITORING VA INTELLEKTUAL DIAGNOSTIKA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	297
Sanayeva Gulsun Baxtiyorovna	
MUHANDISLIK MASALALARINI YECHISHDA CAD VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	302
Rustamov Erkin Tohirovich	
ENERGETIKA TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	307
Xafizov Islom Ikramovich	
QANDLI DIABET KASALLIGINING POPULYATSIYADA TARQALISH ZANJIRI VA DINAMIK KO'RSATKICHLARINING MATEMATIK-STATISTIK TAHLILI	314
G'aniyev Qodirjon Qahramon o'g'li	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA INVESTITSIYALARNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	319
Yunusov Abduvoxid Abdulkarimovich	
MEVA SHARBATLARINI INFRAQIZIL SPEKTROSKOPIYA (IR/FTIR) USULIDA TAHLIL QILISH VA XEMOMETRIK MODELLASH ORQALI SIFAT KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	326
Ibragimov Ulug'bek Muradilloevich	
TO'LDIRUVCHILI UCH QATLAMLI QOVUSHQOQ-ELASTIK PLASTINKALARDA TO'LQIN TARQALISHI VA DINAMIK JARAYONLARNING SONLI TAHLILI	333
Narzulloyev Muxammad Azamatovich	
СВЕРХБЫСТРОЕ УПРАВЛЕНИЕ НАМАГНИЧЕННОСТЬЮ В КОМБИНИРОВАННЫХ СТАТИЧЕСКОМ И ВЫСОКОЧАСТОТНОМ МАГНИТНЫХ ПОЛЯХ	339
Н.Н.Миржонова	



SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARIDA MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	345
Aslonov Qodir Ziyodullayevich	
ОБОСНОВАНИЕ ГОРНОТЕХНИЧЕСКОГО ЭТАПА РЕКУЛЬТИВАЦИИ РУДНЫХ КАРЬЕРОВ	350
Турсунов Баходир Джунайдуллаевич	
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	356
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
LOGISTIKA XARAJATLARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI...	365
Rashidov Uchqun Ro'zimurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ORGANIK MAHSULOTLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA XALQARO BOZORGA CHIQISH MASALALARI TAHLILI.....	369
Berdiyev Samariddin Raxmatovich	
O FACTORS DETERMINING THE LEVEL OF ESG MANAGEMENTIN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN	374
Abdullaeva Sanemkhan Isayevna	
O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA MAQSADLASHI REJIMI: SAMARADORLIGI, MUAMMOLARI VA 2026- YILGA YANGILANGAN PROGNOZ TAHLILI.....	381
Inobatov Abror Boshlarovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISHDA EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH IMKONIYATLARI	388
Humoyun Qodirov	

TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI BOSHQARISHDA EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH IMKONIYATLARI

Humoyun Qodirov

TDIU Andijon fakulteti dotsenti, DSc

Annotatsiya: Mazkur maqolada to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini boshqarish tizimida eksportni diversifikatsiya qilishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy imkoniyatlari tadqiq etiladi. Ushbu sohada diversifikatsiyaning amaldagi holati tahlil qilinib, uning eksport tarkibini xalqaro talabga moslashtirish, bozor xavfini kamaytirish hamda qo'shilgan qiymatni oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini baholash mezonlari ishlab chiqilib, mahsulot, geografik va ko'rsatkichlar kesimida diversifikatsiyalash yo'nalishlari tizimli yondashuv asosida umumlashtiriladi. Shuningdek, eksportni diversifikatsiya qilishni moliyaviy-tashkiliy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va xorijiy bozorlarga chiqish strategiyalari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari to'qimachilik korxonalari rahbarlari, soha siyosatini shakllantiruvchi davlat organlari va ilmiy tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: eksport salohiyati, eksport diversifikatsiyasi, to'qimachilik korxonasi, eksport potentsiali, bozor diversifikatsiyasi, mahsulot diversifikatsiyasi, eksportni boshqarish, xalqaro raqobatbardoshlik, qo'shilgan qiymat, eksport strategiyasi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы и практические возможности диверсификации экспорта в системе управления экспортным потенциалом текстильных предприятий. Анализируется текущее состояние диверсификации в этой области и выявляется ее важность в адаптации экспортной структуры к международному спросу, снижении рыночного риска и повышении добавленной стоимости. В исследовании разработаны критерии оценки экспортного потенциала текстильных предприятий и на основе системного подхода обобщены направления диверсификации по видам продукции, географии и показателям. Также разработаны механизмы финансовой и организационной поддержки диверсификации экспорта и стратегии выхода на зарубежные рынки. Результаты исследования имеют практическое значение для руководителей текстильных предприятий, государственных органов, формирующих отраслевую политику, и научных исследователей..

Ключевые слова: экспортный потенциал, диверсификация экспорта, текстильное предприятие, экспортный потенциал, диверсификация рынка, диверсификация продукции, управление экспортом, международная конкурентоспособность, добавленная стоимость, экспортная стратегия..

Abstract: This article studies the theoretical and methodological foundations and practical possibilities of export diversification in the system of export potential management of textile enterprises. The current state of diversification in this area is analyzed, and its importance in adapting the export structure to international demand, reducing market risk, and increasing added value is revealed. The study develops criteria for assessing the export potential of textile enterprises, summarizes the directions of diversification in terms of products, geography, and indicators based on a systematic approach. Also, financial and organizational support mechanisms for export diversification and strategies for entering foreign markets are developed. The results of the study are of practical importance for managers of textile enterprises, government bodies that form sectoral policy, and scientific researchers.

Keywords: export potential, export diversification, textile enterprise, market diversification, product diversification, export management, international competitiveness, added value, export strategy.

KIRISH

Global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, tashqi bozorlardagi raqobatning kuchayishi, tarif va notarif to'siqlar, shuningdek, logistika zanjirlaridagi yangilanishlar mahalliy ishlab chiqaruvchilardan bozor talablariga tez va samarali moslashishni talab etmoqda. O'zbekiston to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmining salmoqli qismini tashkil qiladi va mamlakatning eksport salohiyatida yuqori ulushga ega. Bugungi kunda mazkur tarmoqda 6 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritib, 570 mingdan ziyod fuqaroni doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlamoqda. Bu ko'rsatkich nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi tarmoqning strategik ahamiyatini ham namoyon etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sanoat tarmoqlari orasida eng ko'p ish o'rinlarini yaratgan va eng katta



bandlik ulushini shakllantirgan soha aynan to'qimachilik sanoati hisoblanadi. Bu holat tarmoqning eksport salohiyatini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimlarini keng joriy etish orqali yanada mustahkamlanmoqda. Natijada, to'qimachilik sanoati O'zbekistonning sanoat ishlab chiqarishidagi muhim tarmoqlardan biri sifatida mamlakat iqtisodiy rivojlanishida salmoqli o'rin egallab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda to'qimachilik mahsulotlari mamlakatimiz umumiy eksport hajmining qariyb 10,6 foizini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich tarmoqning respublika tashqi savdosidagi muhim o'rnini tasdiqlaydi va eksport tarkibini yanada rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlarni ko'rsatadi. Xususan, eksport bozorlarining muayyan darajada konsentratsiyalashuvi tarmoqda yangi tashqi bozorlarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar mavjudligini namoyon etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari eksportining qariyb 80 foizi atigi 4 ta asosiy bozorlarga — Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Turkiya Respublikasiga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur bozorlar bilan shakllangan savdo aloqalari bilan bir qatorda, eksport geografiyasini yanada kengaytirish va yangi hamkor davlatlarni jalb etish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Bundan tashqari, mahsulot turlari bo'yicha diversifikatsiyani yanada rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar mavjud. Eksportning asosiy qismini tashkil qiluvchi ayrim mahsulot turlarining muayyan bozorlarga yo'naltirilgani yangi bozorlarni o'zlashtirish va mahsulot assortimentini kengaytirish istiqbollarini ko'rsatadi. Masalan, ma'lum turdagi ip-kalava yoki to'qima mato mahsulotlarining ayrim mamlakatlarga eksport qilinishi mazkur yo'nalishlarda yangi xaridorlarni jalb etish imkoniyatlarini belgilaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, eksport tarkibining 43,2 foizi xomashyo, 15,3 foizi esa yarim tayyor mahsulotlardan iborat. Mazkur ko'rsatkichlar tayyor va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksportini kengaytirish uchun muhim salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli eksport strukturasida tayyor, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish valyuta tushumlarini diversifikatsiya qilish, eksport barqarorligini mustahkamlash hamda tashqi iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport salohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar o'z tadqiqot ishlarida o'rgangan. A.O. Hirschman eksport salohiyatini mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini tashqi bozorlarga yo'naltirishdagi qobiliyati sifatida ta'riflaydi. U eksport potensialini diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish va eksportni rag'batlantiruvchi siyosatlar bilan bog'laydi.

UNCTAD (Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) savdo, investitsiyalar va rivojlanish masalalari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan tashkilotidir.) eksport salohiyatini tovarlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini va xalqaro bozorda ularni ilgari surish imkoniyatini ifodalovchi omillar majmui sifatida belgilaydi.

L.T. Wells va A.G. Wint o'z tadqiqotida eksport potentsialini investitsiya salohiyati bilan chambarchas bog'liq tushuncha deb hisoblaydi, ya'ni eksport qilish imkoniyati mavjud infratuzilma, institutsional muhit va siyosiy barqarorlik bilan belgilanadi.

Mahalliy olimlar R.A. Xolboev eksport salohiyatini mamlakat yoki hududda mavjud tabiiy, mehnat va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanib, tashqi bozorga tovar yetkazib berish imkoniyati deb tariflaydi. U eksport potentsialini hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'laydi.

Sh.M. Xodjayev eksport salohiyatini tashqi bozorda mamlakat mahsulotlarining raqobatdoshligi, ularni eksport qilishdagi iqtisodiy, logistika va institutsional imkoniyatlar yig'indisi sifatida tavsiflaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini boshqarishda eksportni diversifikatsiya qilish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni tizimlashtirish va tasniflash orqali eksport hajmini oshirishga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan. Shu bois, tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, statistik hisobotlar, maqolalar va xalqaro statistik ma'lumotlar o'rganilib, eksport salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlandi hamda ularning tasnifi asosiy kontseptsiyalar shakllantirildi. Olingan natijalar asosida eksport salohiyatini boshqarishda eksportni diversifikatsiya qilish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimli ravishda tasniflandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosati faol rivojlanib, eksport salohiyati sezilarli darajada kengaydi. 2020–2024-yillar davomida mamlakatimizning eksport geografiyasi 14 ta yangi



davlat bilan kengayib, O'zbekiston mahsulotlarining har biri 10 ming AQSh dollaridan ortiq qiymatga ega bo'lgan 122 ta mamlakatga yetkazib berila boshlandi. Bu holat milliy mahsulotlarning jahon bozorida ishtiroki va raqobatbardoshligi kengayib borayotganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, eksport qilinadigan mahsulotlarning tarkibida diversifikatsiya jarayoni jadallashib bormoqda. Xususan, TIF TN kodining 10 ta belgisi bo'yicha eksport nomenklaturasida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2020-yilda respublikamizda 1 219 xil mahsulot eksport qilingan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 2,4 barobarga ko'payib, 2 874 xil mahsulotni tashkil etdi.

Tadqiqot davomida to'qimachilik mahsulotlari eksportining tovarlar va davlatlar bo'yicha diversifikatsiyalashuvini aniqlashga harakat qilindi. Bunda Herfindal-Hirshman indeksi (HHI)dan foydalanildi. HHI indeksi ko'rsatkichlariga ko'ra, bozordagi raqobat darajasi quyidagi 3 guruhga bo'linadi:

yuqori (0–1500); o'rtacha (1500–2500) va past (2500–10000).

2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining to'qimachilik mahsulotlari eksportida diversifikatsiya darajasining izchil oshib borayotganini kuzatish mumkin. Xususan, 2020-yilda HHI ko'rsatkichi 2668 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1648 birlikka tushdi. Bu holat eksport geografiasini va mahsulot turlari bo'yicha diversifikatsiya jarayonlari faollashganini hamda eksport tarkibida bozorlar va mahsulotlar o'rtasidagi taqsimotning yanada muvozanatlashganini ko'rsatadi.

Besh yillik davr mobaynida HHI indeksining pasayib borayotgani mamlakatning to'qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibida raqobat muhiti va bozorlar xilma-xilligi kengayganini anglatadi. Natijada, O'zbekistonning to'qimachilik eksporti yuqori konsentratsiyalashgan holatdan o'rtacha darajadagi diversifikatsiyalashgan holatga o'tganini ta'kidlash mumkin (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda
diversifikatsiya tahlili¹

O'zbekistonda diversifikatsiya tahlili ¹		eksport	qilingan	to'qimachilik	mahsulotlarini	
No	Ko'rsatkichlar nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1.	Eksport mahsulotlari bo'yicha	2668	2550	2504	1720	1648
	HHI ko'rsatkichi	“past”	“past”	“past”	“o'rta”	“o'rta”
2.	Eksport davlatlari bo'yicha	1606	1920	2180	2248	2435
	HHI ko'rsatkichi	“o'rta”	o'rta”	“o'rta”	“o'rta”	“o'rta”

To'qimachilik mahsulotlari eksportining mamlakatlar kesimidagi diversifikatsiyalashuv darajasini tahlil qilish natijalari ushbu yo'nalishda ma'lum darajada konsentratsiya shakllanganini ko'rsatmoqda. Jumladan, Herfindal-Hirshman indeksi (HHI) bo'yicha hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda mamlakatlar bo'yicha eksport diversifikatsiyasi HHI qiymati 1606 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 2435 birlikka oshgan. Mazkur o'zgarish ayrim asosiy bozorlarning eksport tarkibida ustuvor ahamiyat kasb etayotganini bildiradi. Ayniqsa, bu davr mobaynida Rossiyaga bo'lgan eksport ulushining muntazam ortib borayotgani asosiy omillardan biri sifatida qayd etiladi. Mazkur holat eksport geografiasini yanada kengaytirish va yangi bozorlarni faolroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, HHI ko'rsatkichining 2435 birlik atrofida shakllanishi eksport geografiasida turli bozorlarning ishtiroki saqlanib qolayotganini va o'rtacha darajadagi diversifikatsiya mavjudligini anglatadi. 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonning to'qimachilik mahsulotlari eksportida Rossiya eng yirik savdo hamkori sifatida yetakchilik qilgan bo'lsa-da, undan keyingi o'rinlarda boshqa muhim bozorlarda ham salmoqli ulush kuzatildi. Xususan, Xitoy 13,7%, Turkiya 10,4%, Qirg'iziston 7,8% va Eron 3,2% ulush bilan yetakchi mamlakatlar qatorida qayd etilgan. Bu holat mamlakat eksport strategiyasida yangi bozorlarni qamrab olish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi va eksport geografiasining yanada muvozanatli shakllanishi uchun diversifikatsiyalashuvni chuqurlashtirish muhimligini belgilaydi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibini tahlil etadigan bo'lsak, Andijon va Farg'ona viloyatlarida ip-kalava eksporti mos ravishda 18,8 foiz va 2,9 foizga ortgan. Shu bilan birga, ushbu viloyatlarda tayyor mahsulotlar eksportini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Bu yo'nalishda Namangan viloyati ijobiy natijaga erishib, 2023–2024-yillarda umuman kalava ip eksportini amalga oshirmasdan, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportiga yo'naltirilgan. Mazkur tajriba eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish imkoniyatlarini namoyon etadi (2-jadval).

1 Muallif ishlanmasi.



2-jadval

O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari eksportida mahsulotlar tarkibi (2022–2024)²

№	Viloyatlar	HHI	Jami	Tayyor to'qimachilik mahsulotlari		Ip kalava		Trikotaj mato		Ipak va ipak mahsulotlari/ Tayyor trikotaj mahsulotlari*		Gazlamalar	
			mln. \$	%	mln. \$	%	mln. \$	%	mln. \$	%	mln. \$	%	mln. \$
2022-yil													
	Andijon	4792.8	590,5	64,4	380,3	23,9	141,1	8,2	48,2	2,4	14,2	1,1	6,7
	Namangan	2554.3	390,3	30,8	120,2	32,0	124,9	14,2	55,4	19,1	74,5	3,90	15,2
	Farg'ona	5720.2	398,5	15,6	62	73,7	293,5	3,6	14,4	1,73	6,9	5,4	21,7
2023-yil													
	Andijon	4380.8	498,2	59,7	297,3	25,9	129,2	11,9	59,2	2	10,1	0,5	2,4
	Namangan	2205.8	308,7	42,6	131,4	0	0	4,2	13	38,3	118,2	14,9	46,1
	Farg'ona	5019.1	277,8	23,9	66,4	64,9	175,4	5,0	13,9	2	10,5	4,2	11,6
2024-yil													
	Andijon	4153,2	492,1	55	270,5	31,2	153,5	12,6	61,9	1,1	5,5	0,1	0,6
	Namangan	2301,9	301,1	43,1	129,8	0	0	4,2	12,6	35,8	107,6	16,9	51,1
	Farg'ona	4642,7	284,4	18,3	52,1	63,5	180,5	4,4	12,5	10	28,4	3,8	10,9

2022-yilda Andijon viloyati eksportida paxtadan tayyorlangan ip mahsulotlarining ulushi 23,9 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich hudud eksportida yarim tayyor mahsulotlarning muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi. 2023-yilda mazkur ulush 25,9 foizgacha oshgan bo'lsa-da, bu yo'nalishning eksport tarkibidagi salmog'i saqlanib qolganini ko'rsatadi. 2024-yilda esa ip eksporti ulushi 31,2 foizga yetgan. Mazkur o'sish hudud eksport tarkibida ip mahsulotlarining salmoqli o'rin tutayotganini hamda mahsulotlar tarkibini yanada diversifikatsiya qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksportining ulushi 2022-yilda 64,4 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 59,7 foizga, 2024-yilda esa 55 foizga tushgan. Mazkur o'zgarish hududda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois, Andijon viloyatida tayyor mahsulotlar eksportini oshirish, mahsulot assortimenti diversifikatsiyasini kengaytirish, brendlash va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash yo'nalishlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Namangan viloyatida 2022-yilda paxtadan tayyorlangan ip eksporti umumiy eksport hajmining 32 foizini tashkil etgan. Keyingi ikki yil davomida ip mahsulotlari eksportining qayd etilmagani hudud eksport tarkibida tayyor mahsulotlarga yo'naltirilgan yangi rivojlanish yo'nalishlari shakllanganini ko'rsatadi. Tayyor to'qimachilik mahsulotlari ulushi 2022-yilda 30,8 foiz bo'lib, 2023 va 2024-yillarda izchil o'sish qayd etilgan hamda 2024-yilda 43,1 foizga yetgan. Bu hududning tayyor mahsulot eksportini kengaytirishdagi ijobiy rivojlanish dinamikasini, mahalliy ishlab chiqarishning texnologik modernizatsiyasini va xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Namangan viloyati tajribasi tarmoqning eksport tarkibini yuqori qiymatli mahsulotlar foydasiga diversifikatsiya qilishning amaliy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Farg'ona viloyatida paxtadan tayyorlangan ip eksporti 2022-yilda umumiy eksportning 73,7 foizini tashkil etib, hudud eksportida xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarning salmoqli o'rin tutganini ko'rsatgan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 64,9 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, 2024-yilda 63,5 foiz darajasida qolmoqda. Mazkur dinamika Farg'ona viloyatida tayyor mahsulotlar ulushini oshirish yo'nalishida rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Tayyor to'qimachilik mahsulotlari ulushi 2022-yilda 15,6 foiz bo'lib, 2024-yilda 18,3 foizga oshgan. Ushbu o'sish hududda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportini kengaytirish uchun mavjud salohiyatdan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot davomida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari eksportining 2022–2024-yillardagi tovarlar bo'yicha diversifikatsiyalashuvi Herfindal-Hirshman indeksi (HHI) asosida aniqlandi (3-jadval).

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



3-jadval

Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi to'qimachilik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlarining eksport diversifikatsiyalashuvi³

Yillar	Viloyatlar	HHI	Izoh
2022-yil	Andijon	4792,78	Konsentratsiya yuqori, asosan ikkita mahsulotga qaram.
	Namangan	2554,30	Diversifikatsiya o'rta darajada.
	Farg'ona	5720,16	Juda yuqori konsentratsiya (asosan ip kalava)
2023-yil	Andijon	4380,76	Konsentratsiya kamaygan, diversifikatsiya yaxshilangan.
	Namangan	2205,77	Eng yaxshi diversifikatsiyaga erishilgan.
	Farg'ona	5019,07	Hali ham yuqori konsentratsiya saqlanmoqda.
2024-yil	Andijon	4158,42	Konsentratsiya yana kamaygan.
	Namangan	2301,98	Diversifikatsiya darajasi barqaror qolgan.
	Farg'ona	4642,75	Konsentratsiyani kamaytirish harakatlari bor.

Baholash natijalariga ko'ra, Andijon viloyatida 2022-yilda HHI indeksi 4792,78 ni tashkil etgan bo'lsa, 2023 va 2024-yillarda ushbu indeks bosqichma-bosqich kamayib, 4380,7 va 4158,42 ni tashkil etgan. Viloyatda asosiy e'tibor tayyor to'qimachilik mahsulotlari va ip-kalavaga qaratish davom etmoqda, shu bilan birga, mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish jarayonlari kuzatilmoqda va konsentratsiya bosqichma-bosqich kamaymoqda. Viloyatning to'qimachilik mahsulotlari eksportini yanada faol diversifikatsiyalash imkoniyatlari mavjud.

Namangan viloyati HHI indeksi 2022-yilda 2554,30 bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu 2205,77 ga, 2024-yilda esa 2301,98 ga tushgan. Mahsulotlar tarkibi nisbatan barqaror va diversifikatsiyalangan. Bu viloyatda mahsulotlar ulushi nisbatan tengroq taqsimlangan. Viloyat diversifikatsiya bo'yicha ijobiy natijalarga ega bo'lib, yuqori darajada barqarorlikni namoyon qilmoqda.

Farg'ona viloyatida to'qimachilik mahsulotlari eksporti diversifikatsiya indeksi HHI 2022-yilda 5720,16 ni tashkil etib, mahsulotlar tarkibida nisbatan yuqori konsentratsiyani ko'rsatgan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 5019,07 ga, 2024-yilda esa 4642,75 ga tushgan. Viloyat eksporti hajmida asosan bitta mahsulot, ip-kalava hali ham salmoqli ulushga ega bo'lib, shu bilan birga, konsentratsiya darajasi bosqichma-bosqich pasayib bormoqda. Farg'ona viloyatida diversifikatsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2022–2024-yillar tahlili shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyati tayyor mahsulotlar ulushini barqaror ravishda oshirishga erishgan hamda paxta ipini eksport qilishdan to'liq voz kechgan yagona hudud sifatida ajralib turadi. Bu yo'nalish tarmoqning eksport barqarorligi va qo'shilgan qiymat darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Andijon viloyatida tayyor mahsulotlar ulushi yillar davomida o'zgarib, paxtadan tayyorlangan ip eksporti ulushi ortib bormoqda. Mazkur holat hudud eksport tarkibida mahsulotlar diversifikatsiyasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Farg'ona viloyatida esa ip eksporti yuqori darajada saqlanib qolmoqda va tayyor mahsulotlar ulushi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Bu hududda ishlab chiqarish diversifikatsiyasi va tayyor mahsulotlar ulushini yanada oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Umuman olganda, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari bo'yicha eksport tarkibi tahlili tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, ip eksporti tarkibini diversifikatsiya qilish va yangi qo'shilgan qiymatli mahsulot turlarini ishlab chiqish bo'yicha hududiy strategiyalarni yanada rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi. Umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, vodiy viloyatlari ichida Namangan viloyati barqaror natijalarni qayd etmoqda, sababi bu yerda mahsulotlar ulushi nisbatan tengroq taqsimlangan. Andijon va Farg'ona viloyatlarida eksport xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash uchun diversifikatsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Mahsulot turlarini kengaytirish orqali bozor talablaridagi o'zgarishlarga moslashish va eksport barqarorligini mustahkamlash mumkin. Shu nuqtai nazardan Andijon va Farg'ona viloyatlarida mahsulot turlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalar hajmini oshirish muhim hisoblanadi. Bu borada Namangan viloyatida shakllangan ijobiy tajribadan foydalanish hududiy eksport tarkibini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari
2. World Bank. Export Competitiveness: A Policy Toolkit. Washington D.C., 2017.
3. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari. www.mift.uz
4. UNCTAD. Enhancing the Export Competitiveness of SMEs in Developing Countries. Geneva, 2019.
5. UNCTAD. (2012). *Building Productive Capacities in Least Developed Countries: Issues for Discussion*. United Nations Publication.
6. Xolboev, R.A. (2020). "Eksport salohiyatini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish". *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №6, 45–50.
7. Xodjayev, Sh.M. (2019). "O'zbekistonning eksport salohiyatini baholashning nazariy asoslari". TDIU Ilmiy axborotlari, №3, 73–79.
8. https://uza.uz/oz/posts/eksport-salohiyatini-oshirish-borasida-muhim-qadamlar-tashlanmoqda_446569?utm_source=chatgpt.com
9. United Nations Conference on Trade and Development (2022). *Trade and Development Report 2022: From Recovery to Resilience*. UNCTAD. <https://unctad.org/webflyer/trade-and-development-report-2022>
10. <https://www.investopedia.com/terms/h/hhi.asp>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100